Dunyo xalqlariga o’rnak bo’laylik!

Aziz yurtdoshlar! Qariyb bir oydan oshdi, yurtimizga xavfli koronavirus deb ataluvchi virus kirib keldi. Koronavirus tufayli har birimiz uchun sinovli kunlar boshlandi. Ushbu yuqumli epidemiyaning keng tarqalib ketishining oldini olish uchun mamlakatimizda karantin e’lon qilindi. Karantin paytida butun oila a’zolarimiz bilan uyda qolishimiz va biz kattalar yoshlarga, farzandlarimizga va nabiralarimizga o’rnak bo’lishimiz kerak. Ularga ushbu karantin xalqimizning, shu bilan birga har birimizning tinchligimiz va xotirjamligimiz uchun hamda sihat-salomatligimiz uchunligini, shu bilan birga hech qanday qo’rqishga, vahimaga hojat yo’qligini uqtirishimiz kerak. Biz ham oila a’zolarimiz bilan karantinning hamma tartib-qoidalariga to’la amal qilgan holda uyda o’tiribmiz.

Men O’zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida laboratoriya mudiri lavozimida ishlayman. Men ilmiy ishlarim bilan uyda shug’ullanyapman va masofadan ishlamoqdaman.

Hurmatli vatandoshlar, sabr tagi sariq oltin deyishadi. Kelinglar, hammamiz karantin tartib-qoidalariga amal qilib, uyda qolaylik va koronavirus deb atalmish ushbu baloni yengishda dunyo xalqlariga o’rnak bo’laylik. Shunday ekan, uyda qoling!

Muhammadali O’sarov,

O’zR FA Mexanika va inshootlar

seysmik mustahkamligi instituti.